



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3833
2026 - yil 08 - May

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH QO'MITASINING QARORI

Yirik investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va ularning raqobat muhitiga ta'sirini baholash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-fevraldagi 44-son "Yirik investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish jarayonida korrupsiyaga qarshi hamda raqobatni ta'minlovchi standartlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [qaroriga](#) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish [agentligi](#) hamda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish [qo'mitasi](#) **qaror qiladi:**

1. Yirik investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va ularning raqobat muhitiga ta'sirini baholash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan kelishilgan.
3. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor
2026-yil 14-aprel
18-SON



BURXANOV AKMAL
ESHONDEDAYEVICH

Rais
2026-yil 26-mart
04/11-05/01-son



TURAXUJAYEV HALILILLO
SOBIRJONOVICH

Kelishildi:

Vazir
2026-yil 24-mart



KUDRATOV LAZIZ
SHAVKATOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 14-apreldagi 18-son hamda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining 2026-yil 26-martdagi 04/11-05/01-son qaroriga
ILOVA

**Yirik investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va ularning raqobat muhitiga ta’sirini baholash tartibi to‘g‘risidagi
YO‘RIQNOMA**

Mazkur Yo‘riqnoma yirik investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va ularning raqobat muhitiga ta’sirini baholash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo‘riqnoma quyidagi yirik investitsiya loyihalariga nisbatan tatbiq etiladi:

davlat budjeti yoki davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan [investitsiya loyihalari](#);

davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan [investitsiya loyihalari](#);

davlat kafolatlari, imtiyozlar yoki davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning boshqa shakllarini nazarda tutuvchi xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi [investitsiya loyihalari](#).

2. Mazkur Yo‘riqnomada quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

vakolatli organlar – O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish [qo‘mitasi](#);

yirik investitsiya loyihasi (bundan buyon matnda loyiha deb yuritiladi) – moliyaviy resurslar qiymati kamida 50,0 mln AQSH dollari ekvivalentida (shu jumladan, davlat investitsiyalari, xalqaro moliya institutlari kreditlari) jalb etilgan holda amalga oshiriladigan, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlar, xizmatlar yoki boshqa infratuzilmani yaratish, kengaytirish yoki modernizatsiya qilishga qaratilgan [investitsiya loyihalari](#);

loyihani korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish (bundan buyon matnda ekspertiza deb yuritiladi) – loyihani rejalashtirish, moliyalashtirish,

tayyorlash, davlat xaridlarini amalga oshirish va ekspluatatsiya, monitoring qilish bosqichlarida korrupsiya holatlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillar va xavflarni aniqlash hamda tahlil qilish, shuningdek, ularni bartaraf etish yoki kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab [chiqish jarayoni](#);

loyihaning raqobat muhitiga ta'sirini baholash (bundan buyon matnda baholash deb yuritiladi) – loyihaning tegishli bozorlarda raqobatga ta'sirini baholash, raqobatni cheklash, ayrim ishtirokchilarga ustunlik berish yoki monopol holatni yuzaga keltirish xavflarini aniqlash, bartaraf etish, shuningdek barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni [belgilash jarayoni](#).

3. Mazkur Yo'riqnoma talablariga muvofiq ekspertizadan o'tkazilmagan hamda baholanmagan loyihani tasdiqlashga yoki amalga oshirishning keyingi bosqichiga o'tkazishga [yo'l qo'yilmaydi](#).

2-bob. Loyihani ekspertizadan o'tkazish hamda baholashning maqsad va vazifalari

4. Loyihani ekspertizadan o'tkazish va baholashning maqsadi loyihaning shaffoflik, hisobdorlik va xolislik tamoyillari asosida amalga oshirish, korrupsiya xavflarini oldindan aniqlash va sog'lom raqobat muhitini ta'minlashdan iborat.

5. Ekspertizaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

loyihani tayyorlash va amalga oshirish bosqichlarida korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash;

manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlarni [bartaraf etish](#);

diskretion vakolatlarining asossiz [qo'llanilishini cheklash](#);

davlat xaridlarida shaffoflikni ta'minlash;

moliyaviy hisob-kitoblar va loyiha qiymatining iqtisodiy asoslanganligini baholash;

aniqlangan xavflarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash.

6. Baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

loyihaning bozorda raqobatni cheklash ehtimolini aniqlash;

barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlash;

davlat tomonidan taqdim etiladigan davlat yordamining (imtiyoz, preferensiya va boshqa turdagi qo'llab-quvvatlash choralarining) raqobatga ta'sirini baholash;

ayrim ishtirokchilarga ustunlik berish yoki monopol holatni yuzaga keltirish (bozorda ustun mavqe yuzaga kelishi) xavfini bartaraf etish;

ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga eksklyuziv (mutlaq) huquqlarning asossiz berilishiga yo'l qo'ymaslik.

3-bob. Loyihani ekspertizadan o'tkazish tartibi

7. Loyiha quyidagi bosqichlarda majburiy tartibda ekspertizadan [o'tkaziladi](#):

loyiha tashabbusi [bosqichida](#) – konsepsiya, texnik-iqtisodiy asos, loyihani baholash hujjati yoki loyihani asoslovchi boshqa dastlabki hujjatlar ishlab chiqilayotganda, shuningdek moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilinishi yoki shartnoma tuzilishi (davlat xususiy-sheriklik uchun) oldidan;

davlat xaridi [bosqichida](#) – loyiha bo'yicha yetkazib beruvchilar, pudratchilar, investorlar yoki hamkorlarni tanlash uchun raqobatbardosh tanlov jarayonlari o'tkazilishi paytida;

amalga oshirish [bosqichida](#) – loyiha shartlarida sezilarli o'zgarishlar bo'lganda, qo'shimcha shartnomalar tuzilganda, shartnomalarning ijrosini monitoring qilish paytida korrupsiya holatlarini aniqlash va ularning oldini olish maqsadida.

8. Loyiha ekspertizasi davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari (bundan buyon matnda ichki nazorat tuzilmalari deb yuritiladi) tomonidan tashkil etiladi va [o'tkaziladi](#).

9. Loyihani tayyorlayotgan davlat organi yoki tashkiloti (bundan buyon matnda loyiha tashabbuskori deb yuritiladi) loyihaga aloqador quyidagi hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish uchun ichki nazorat tuzilmasiga [taqdim etadi](#):

oldindan to'ldirilgan mazkur Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi Yirik investitsiya loyihasida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash bo'yicha cheklist (bundan buyon matnda korrupsiyaviy xavflar cheklisti deb yuritiladi);

loyiha konsepsiyasi;

texnik-iqtisodiy asos;

loyihani baholash hujjati;

kelishuv loyihasi;

hamkorni tanlashga oid materiallar;

loyihaga aloqador boshqa mavjud hujjatlar va ma'lumotlar.

10. Taqdim etilgan hujjatlar ichki nazorat tuzilmasining mas'ul xodimi tomonidan qabul qilinib, ularning to'liqligi va ekspertizadan o'tkazish uchun yaroqliligi ikki ish kuni ichida tekshiriladi.

Ichki nazorat tuzilmasi ekspertizani o'tkazish uchun zarur bo'lgan, mavjud qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim etilishini talab qilishi mumkin.

11. Taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lmagan va (yoki) ekspertizadan o'tkazish uchun yaroqsiz deb topilgan taqdirda ichki nazorat tuzilmasi aniqlangan kamchiliklar ro'yxatini ko'rsatgan holda ularni loyiha tashabbuskoriga qaytaradi.

12. Taqdim etilgan hujjatlar to'liq va ekspertizadan o'tkazish uchun yaroqli deb topilgan kunning o'zida idoraviy nazorat jurnalida [ro'yxatdan o'tkaziladi](#).

Loyiha idoraviy nazorat jurnalida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab o'n besh ish kuni ichida [ekspertizadan o'tkaziladi](#).

13. Ekspertiza taqdim etilgan hujjatlarni mazmunan o'rganish va alohida korrupsiyaviy xavflar cheklistini to'ldirish orqali quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

1) tashkil etish va o'tkazish jarayonining [oshkoraligi](#).

Loyihani tashkil etish va o'tkazish, shu jumladan rejalashtirish va ijrochilarni tanlash jarayonining oshkoraligi quyidagilar asosida baholanadi:

salohiyatli ishtirokchilar uchun loyiha bo'yicha barcha zarur ma'lumotlar (predmet, qiymat, moliyalashtirish manbalari, tanlash mezonlari, muddatlar va boshqalar) to'liq e'lon qilinganligi;

takliflarni taqdim etish uchun yetarli muddatning mavjudligi;

qabul qilingan qarorlar tegishli bayonnoma yoki xulosalar bilan rasmiylashtirilganligi;

ishtirokchilarning savollari va murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi ta'minlanganligi;

2) me'yorlarning aniqligi [va xolisligi](#).

Investorni (yetkazib beruvchi, pudratchi, hamkor) tanlash mezonlari va loyiha natijalarini baholash ko'rsatkichlari oldindan aniq belgilanganligi hamda barcha ishtirokchilarga bir xil tartibda qo'llanganligi tekshiriladi.

Me'yorlarning aniqligi va xolisligi quyidagilar asosida baholanadi:

g'olibni tanlash mezonlari va baholash ko'rsatkichlarining oldindan belgilanganligi;

g'olibni tanlash va qaror qabul qilish bosqichlarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilganligi;

baholash mezonlarining barcha ishtirokchilarga nisbatan bir xil tartibda qoʻllanganligi;

3) manfaatlar toʻqnashuvi [mavjud emasligi](#).

Ekspertiza jarayonida loyihani tayyorlash va amalga oshirishda ishtirok etuvchi shaxslarning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi, ularning oʻz lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga taʼsir koʻrsatayotgan yoki taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari oʻrtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin boʻlgan holatlar mavjud emasligi tekshiriladi.

Manfaatlar toʻqnashuvi mavjud emasligi quyidagilar asosida baholanadi:

loyihani tayyorlash va amalga oshirishda ishtirok etuvchi mansabdor shaxslar tomonidan ehtimoliy manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisidagi deklaratsiya taqdim etilganligi;

qaror qabul qilishda ishtirok etuvchi shaxslarning loyihada ishtirok etuvchi investor (yetkazib beruvchi, pudratchi, hamkor) bilan mulkiy, moliyaviy yoki boshqaruvga oid manfaatdorligi mavjud emasligi;

manfaatlar toʻqnashuvi yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin boʻlgan holatlarda manfaatdor shaxslarning qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etmasligi taʼminlanganligi;

manfaatlar toʻqnashuvini aniqlash va bartaraf etish boʻyicha belgilangan ichki tartiblarga rioya etilganligi;

4) diskretsion vakolatlar [mavjud emasligi](#).

Loyiha yoki unga bogʻliq qarorlarda davlat organlari yoki mansabdor shaxslarga ortiqcha yoki noaniq vakolatlar berilmaganligi tekshiriladi.

Qarorlar qabul qilishda mansabdor shaxslarning asossiz ravishda oʻz ixtiyoriga koʻra harakat qilish imkoniyati cheklangan boʻlishi lozim.

Diskretsion vakolatlar mavjud emasligi quyidagilar orqali baholanadi:

qaror qabul qilishning shartlari, asoslari va tartib-taomillari aniq va tushunarli tarzda belgilanganligi;

loyihada davlat organlari yoki mansabdor shaxslarga noaniq yoki cheklanmagan vakolatlar berishga olib keluvchi qoidalarning mavjud emasligi (shartnomaning muhim shartlarini belgilangan tartib-taomillardan tashqari oʻzgartirish imkoniyati berilmaganligi, zaxira mablagʻlarini yakka tartibda tasarruf etish huquqi nazarda tutilmaganligi va boshqalar);

davlat organlari yoki mansabdor shaxslarga ularning vakolat doirasiga kirmaydigan vazifalar yuklatilmaganligi;

5) cheklovlar va to‘siqlar [mavjud emasligi](#).

Loyihada ishtirokchilar uchun belgilangan cheklovlar va to‘siqlar maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi hamda ortiqcha ma‘muriy yoki moliyaviy yuklamalarga olib kelmasligi tekshiriladi.

Cheklovlar va to‘siqlar mavjud emasligi quyidagilar orqali baholanadi:

cheklovlar va to‘siqlarning loyiha maqsadidan kelib chiqqan holda asoslanganligi;

litsenziyalash, ruxsatnoma berish va xabardor qilish tartib-taomillarining qonunchilik talablariga muvofiq belgilanganligi;

noaniq yoki asossiz talablarning nazarda tutilmaganligi;

loyihada belgilangan maqsad va vazifalar bilan bog‘liq bo‘lmagan tashkiliy, moliyaviy yoki ma‘muriy talablarning nazarda tutilmaganligi;

muayyan doiradagi ishtirokchilarga ustunlik beruvchi talablarning belgilanmaganligi.

Loyihada jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini asossiz cheklashga olib keluvchi yoki muayyan ishtirokchining manfaatini ko‘zlab belgilangan talablar mavjud bo‘lmasligi lozim;

6) [nazorat va hisobot](#).

Loyihada uni amalga oshirish ustidan tashqi nazorat mexanizmlari hamda loyihani amalga oshirish natijalari bo‘yicha hisobot berish tartiblari mavjudligi tekshiriladi.

Nazorat va hisobot mexanizmlari mavjudligi quyidagilar orqali baholanadi:

loyiha amalga oshirilishi ustidan tashqi nazorat shakllarining (audit, monitoring, jamoatchilik nazorati) nazarda tutilganligi;

loyihani amalga oshirish jarayonini monitoring qilish tartibining belgilanganligi;

loyihani amalga oshirish natijalari to‘g‘risida ommaviy hisobot taqdim etish tartibining belgilanganligi;

7) [javobgarlik choralari](#).

Loyiha hujjatlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun ta‘sirchan javobgarlik choralarning mavjudligi tekshiriladi.

Javobgarlik choralari mavjudligi quyidagilar orqali baholanadi:

korrupsiyaviy huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda shartnomani bekor qilish, jarima sanksiyalarini qo'llash, pudratchini chetlatish va boshqa choralarning mavjudligi;

loyiha ishtirokchilarining korrupsiyaga qarshi qoidalarga rioya etish majburiyatining mavjudligi;

xalqaro tajribaga, shu jumladan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti standartlariga muvofiq loyiha ishtirokchilaridan korrupsiyaga qarshi ichki qoidalar, komplayens dasturlari yoki odob-axloq siyosatining mavjudligi to'g'risida axborot taqdim etish talabining mavjudligi;

8) [boshqa omillar.](#)

Loyihada korrupsiyaviy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan boshqa omillarning mavjudligi tekshiriladi.

Boshqa korrupsiyaviy xavflar quyidagilar orqali baholanadi:

huquqiy masalalardagi bo'shliqlarning mavjud emasligi;

huquq va majburiyatlarning aniq va tushunarli tarzda belgilanganligi;

qoidalarni turlicha talqin qilish imkoniyatining mavjud emasligi;

qaror qabul qilish yoki amalga oshirish tartib-taomillarining to'liq belgilanmaganligi.

14. Korrupsiyaviy xavflar cheklistini to'ldirish ushbu cheklistda belgilangan har bir savolga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Savolda nazarda tutilgan talablar ta'minlangan taqdirda "Ha" ustunining tegishli qatoriga tasdiq belgisi ("✓") qo'yiladi.

Savolda nazarda tutilgan talablar ta'minlanmagan taqdirda "Yo'q" ustunining tegishli qatoriga tasdiq belgisi ("✓") qo'yiladi hamda "Izoh (asoslash)" ustunining tegishli qatorida korrupsiyaviy xavfni keltirib chiqaruvchi omillar qisqacha asoslantiriladi.

Savol loyihaga taalluqli bo'lmagan taqdirda "Tegishli emas" ustunining tegishli qatoriga tasdiq belgisi ("✓") qo'yiladi hamda "Izoh (asoslash)" ustunining tegishli qatorida savol loyihaga taalluqli emasligining sabablari ko'rsatiladi.

15. Loyihaning korrupsiyaviy xavf darajasi ekspertiza natijasiga ko'ra to'ldirilgan korrupsiyaviy xavflar cheklisti asosida yuqori, o'rtacha va past xavf toifalariga ajratiladi.

Xavf darajasi quyidagicha tasniflanadi:

yuqori xavf – 10 ta va undan ortiq korrupsiyaviy omil aniqlangan taqdirda;

o‘rtacha xavf – 5-9 ta korrupsiyaviy omil aniqlangan taqdirda;

past xavf – 1-4 ta korrupsiyaviy omil aniqlangan taqdirda;

korrupsiyaviy xavf aniqlanmagan – korrupsiyaviy omil mavjud bo‘lmagan taqdirda.

Belgilangan xavf toifasi korrupsiyaga qarshi ekspertiza xulosasida aks ettiriladi va loyihaning korrupsiyaviy xavf darajasini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

16. Ekspertiza natijalariga ko‘ra ichki nazorat tuzilmasi tomonidan mazkur Yo‘riqnomaning 2-ilovasida nazarda tutilgan Yirik investitsiya loyihasi bo‘yicha korrupsiyaga qarshi ekspertiza xulosasining namunaviy shakliga muvofiq korrupsiyaga qarshi ekspertiza xulosasi tayyorlanadi.

Korrupsiyaga qarshi ekspertiza xulosasi ekspertiza jarayonida o‘tkazilgan tahlil natijalariga asoslanadi hamda loyihada aniqlangan korrupsiyaviy xavflar, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar va loyihaning maqbulligi bo‘yicha yakuniy xulosani o‘z ichiga oladi.

17. Korrupsiyaga qarshi ekspertiza xulosasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

loyihadagi korrupsiyaviy xavf darajasining [umumlashtirilgan bahosi](#) – aniqlangan korrupsiyaviy omillar asosida loyihaning past, o‘rtacha yoki yuqori xavf darajasi;

aniqlangan korrupsiyaviy xavflar va qonun buzilishi holatlari [ro‘yxati](#);

korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etish [bo‘yicha tavsiyalar](#) – chora-tadbirlar rejasi, loyiha hujjatlariga kiritilishi lozim bo‘lgan o‘zgartishlar, qo‘shimcha tartib-taomillar, nazorat mexanizmlari yoki preventiv choralar;

yuqori xavfli loyihalar uchun alohida choralar – loyihani amalga oshirish jarayoniga mustaqil kuzatuvchi (monitor) jalb etish, korrupsiyaga qarshi auditlar o‘tkazish yoki doimiy monitoring tashkil etish bo‘yicha [takliflar](#);

tavsiyalarni bajarish muddatlari va [mas’ul shaxslar](#) – tavsiyalarni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan tashkilotlar yoki shaxslar hamda ularni bajarish muddatlari;

loyihaning maqbulligi bo‘yicha [yakuniy xulosa](#) – aniqlangan korrupsiyaviy xavflar bartaraf etilgan taqdirda loyihani amalga oshirish mumkinligi yoki xavflar bartaraf etilmagan taqdirda loyihani qayta ishlash yoxud loyihani amalga oshirish maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risidagi ma’lumot.

18. Loyihaning xavf darajasi yuqori bo‘lgan taqdirda loyihaning maqbulligi bo‘yicha salbiy xulosa beriladi.

Loyihaning xavf darajasi past yoki o'rtacha bo'lgan taqdirda korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar asosida loyihaning maqbulligi bo'yicha ijobiy xulosa beriladi. Bunda ichki nazorat tuzilmasi korrupsiyaviy omilning jiddiyligi hamda kelgusida tavsiyalar ijrosi ustidan nazorat qilish imkoniyatidan kelib chiqib, loyihaning maqbulligi bo'yicha salbiy xulosa berishi mumkin.

19. Korrupsiyaga qarshi ekspertiza natijalariga ko'ra aniqlangan korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida ichki nazorat tuzilmasi tomonidan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tavsiyalar o'tkazilgan tahlil natijalariga asoslangan holda ishlab chiqilib, aniq va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan shaklda bayon qilinishi hamda ularni bajarish uchun mas'ul ijrochilar va muddatlar ko'rsatilishi lozim.

Tavsiyalar quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

loyiha hujjatlariga korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

tanlash mezonlarini aniqlash, noaniq yoki asossiz (subyektiv) talablarni chiqarib tashlash yoki asoslash;

manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlarni bartaraf etish, shu jumladan manfaatdor shaxslarni qaror qabul qilish jarayonidan chetlatish;

loyihani muhokama qilishda mustaqil ekspertlar yoki jamoatchilik ishtirokini ta'minlash;

loyihani amalga oshirish bo'yicha shartnomalarga korrupsiyaga qarshi talablarni kiritish, shu jumladan korrupsiya holatlari aniqlangan taqdirda shartnomani bekor qilish huquqini nazarda tutish;

loyihani amalga oshirish jarayoni ustidan qo'shimcha nazorat mexanizmlarini joriy etish.

20. Korrupsiyaga qarshi ekspertiza xulosasi korrupsiyaviy xavflar cheklisti hamda loyihaga aloqador boshqa hujjatlar bilan birgalikda loyiha tashabbuskoriga hamda loyiha bo'yicha qaror qabul qiluvchi vakolatli davlat organi yoki tashkilotiga yuboriladi.

4-bob. Loyihani baholash tartibi

21. Loyihaning raqobat muhitiga ta'siri korrupsiyaga qarshi ekspertiza bilan bir vaqtda yoki undan so'ng [baholanadi](#).

22. Baholash davlat organlari va tashkilotlarining ichki nazorat tuzilmalari va (yoki) monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy etilgan davlat organlari va tashkilotlarida [monopoliyaga qarshi komplayens](#) bo'yicha mas'ul xodim (bundan buyon matnda mas'ul xodim deb yuritiladi) tomonidan [amalga oshiriladi](#).

23. Loyiha tashabbuskori loyihaga aloqador quyidagi hujjatlarni baholash uchun ichki nazorat tuzilmasi va (yoki) mas'ul xodimga [taqdim etadi](#):

loyiha konsepsiyasi;

texnik-iqtisodiy asos;

loyihani baholash hujjati;

kelishuv loyihasi;

hamkorni tanlashga oid materiallar;

loyihaga aloqador boshqa mavjud hujjatlar va ma'lumotlar.

24. Taqdim etilgan hujjatlar ichki nazorat tuzilmasi va (yoki) mas'ul xodim tomonidan qabul qilinib, ularning to'liqligi va baholash uchun yaroqliligi ikki ish kuni ichida tekshiriladi.

Ichki nazorat tuzilmasi va (yoki) mas'ul xodim baholash uchun zarur bo'lgan, mavjud qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim etilishini talab qilishi mumkin.

25. Taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lmagan va (yoki) baholash uchun yaroqsiz deb topilgan taqdirda ichki nazorat tuzilmasi va (yoki) mas'ul xodim aniqlangan kamchiliklar ro'yxati ko'rsatilgan holda ularni loyiha tashabbuskoriga qaytaradi.

26. Taqdim etilgan hujjatlar to'liq va baholash uchun yaroqli deb topilgan kunning o'zida idoraviy nazorat jurnalida [ro'yxatdan o'tkaziladi](#).

Loyiha idoraviy nazorat jurnalida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab o'n besh ish kuni ichida [baholanadi](#).

Loyihaning murakkabligi va materiallar hajmidan kelib chiqib, baholashning umumiy muddati asoslantirilgan holda yigirma ish kunigacha [uzaytirilishi mumkin](#).

27. Taqdim etilgan hujjatlar va materiallar ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng baholashni amalga oshirish uchun ichki nazorat tuzilmasi va (yoki) mas'ul xodim tomonidan mutaxassislar tayinlanadi yoki kollegial tarzda ko'rib chiqish uchun [komissiya shakllantiriladi](#).

Loyiha murakkab yoki ko'p tarmoqli bo'lgan taqdirda baholashni amalga oshirish uchun sohaviy mutaxassislar, zarur hollarda vakolatli organlarning vakillari ishtirokida ishchi guruh [tuzilishi mumkin](#).

28. Baholash taqdim etilgan hujjatlarni mazmunan o'rganish va mazkur Yo'riqnomaning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi Yirik investitsiya loyihasining raqobat muhitiga ta'sirini baholash bo'yicha cheklistni (bundan buyon matnda baholash cheklisti deb yuritiladi) to'ldirish orqali quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

1) [bozor va ishtirokchilar](#).

Loyihani amalga oshirishga ta'sir ko'rsatadigan tegishli bozor yoki faoliyat sohasi, bozordagi asosiy va salohiyatli ishtirokchilar, ularning ulushlari hamda raqobat muhitiga ta'siri tekshiriladi.

Bozor va ishtirokchilar quyidagilar asosida baholanadi:

loyihaning tegishli bozorlarga (faoliyat sohaslariga) ta'siri aniqlanganligi;

loyihani amalga oshirish davomida tovar yoki xizmatlar bozoridagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning soni yoki doirasi cheklanmasligi;

loyihaning yetkazib beruvchilar (pudratchilar, ta'minotchilar) soniga ta'siri baholanganligi;

ta'minotchilar soni qisqargan taqdirda uning texnologik yoki iqtisodiy jihatdan asoslanganligi;

2) kirish shartlari va [maxsus huquqlar](#).

Loyiha doirasida xususiy sherik yoki investorga davlat yordamini berish nazarda tutilgan holatlarda bozorga kirish shartlari hamda maxsus huquqlar raqobat muhitiga ta'siri nuqtayi nazaridan tekshiriladi.

Kirish shartlari va maxsus huquqlar quyidagilar asosida baholanadi:

loyihada ayrim ishtirokchilarga eksklyuziv huquqlar yoki imtiyozlar berish nazarda tutilganligi;

eksklyuziv huquqlar yoki imtiyozlarning (shartlarning) asoslanganligi;

eksklyuziv huquqlar yoki imtiyozlarning amal qilish muddati va qayta ko'rib chiqish mexanizmining mavjudligi;

3) [davlatning aralashuvi](#).

Loyihada nazarda tutilgan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarining (subsidiyalar, minimal daromad kafolati, mahsulotni xarid qilib olish va boshqalar) raqobat muhitiga ta'siri hamda ularning asoslanganligi tekshiriladi.

Davlatning aralashuvi quyidagilar asosida baholanadi:

davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralarining raqobat muhitiga salbiy ta'siri, shu jumladan raqobatchi subyektlarning o'zaro

raqobatlashishga bo‘lgan qiziqishini pasaytirish ehtimolining mavjud yoki mavjud emasligi;

davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash choralarining ochiqligi va shaffofligi ta‘minlanganligi;

davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash choralarining vaqtinchaligi hamda boshqa ishtirokchilar uchun teng shart-sharoitlarni buzmasligi;

4) [bog‘liq bozorlarga ta‘sir](#).

Loyihaning bog‘liq tarmoq va bozorlarga ehtimoliy ta‘siri hamda raqobat muvozanatiga ta‘siri tekshiriladi.

Bog‘liq bozorlarga ta‘sir quyidagilar asosida baholanadi:

loyihaning bog‘liq bozorlarda raqobatni cheklash ehtimolining mavjud yoki mavjud emasligi;

bog‘liq bozorlarda ustun mavqe vujudga kelish ehtimolining mavjud yoki mavjud emasligi;

bog‘liq bozorlarda raqobatni saqlash va ustun mavqe vujudga kelishining oldini olish choralari nazarda tutilganligi;

5) raqobat qonunchiligiga [muvofiqlik](#).

Loyihaning shartlari raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligi tekshiriladi.

Raqobat qonunchiligiga muvofiqlik quyidagilar asosida baholanadi:

loyihada raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga zid bo‘lgan shartlar nazarda tutilmaganligi;

raqobatni cheklashga olib kelishi mumkin bo‘lgan shartlar mavjud bo‘lgan taqdirda ularning O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi bilan kelishilganligi;

ishtirokchilar faoliyatini cheklashga olib keluvchi shartlar nazarda tutilmaganligi.

29. Baholash cheklistini to‘ldirish ushbu cheklistda belgilangan har bir savolga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Savolda nazarda tutilgan talablar ta‘minlangan taqdirda “Ha” ustunining tegishli qatoriga tasdiq belgisi (“✓”) qo‘yiladi.

Savolda nazarda tutilgan talablar ta‘minlanmagan taqdirda “Yo‘q” ustunining tegishli qatoriga tasdiq belgisi (“✓”) qo‘yiladi hamda “Izoh (asoslash)”

ustunining tegishli qatorida raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar asoslantiriladi.

Savol loyihaga taalluqli bo'lmagan taqdirda "Tegishli emas" ustunining tegishli qatoriga tasdiq belgisi ("✓") qo'yiladi hamda "Izoh (asoslash)" ustunining tegishli qatorida savol loyihaga taalluqli emasligining sabablari ko'rsatiladi.

30. Baholashda quyidagi jihatlarga alohida [e'tibor qaratiladi](#):

loyihada ishtirokchilar doirasi asossiz cheklanmaganligi hamda loyiha muayyan bir ijrochiga mo'ljallab [ishlab chiqilmaganligi](#);

loyihada bozorga kirish to'siqlari mavjud emasligi, shu jumladan ishtirokchilarga nisbatan haddan tashqari talablar belgilanmaganligi, qonunchilikda nazarda tutilmagan litsenziya yoki sertifikatlash shartlari joriy etilmaganligi hamda boshqa asossiz cheklovlar [nazarda tutilmaganligi](#);

tender (tanlov) jarayonining shaffof va ochiq tashkil etilganligi, kamsituvchi talablar belgilanmaganligi hamda o'zaro kelishuv xavfini keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlar [mavjud emasligi](#);

loyihada nazarda tutilgan davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralari (subsidiyalar, minimal daromad kafolati, mahsulotni xarid qilib olish va boshqalar) zarurligi va asoslanganligi, davlatning moliyaviy majburiyatlari oshkora aks ettirilganligi hamda xususiy sherikka berilayotgan imtiyozlarning davlat [manfaatlariga mosligi](#);

loyihani amalga oshirishning yakuniy iste'molchilarga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'siri, shu jumladan raqobatning cheklanishi natijasida sifat yomonlashishi, tanlov imkoniyatlari kamayishi yoki narxlar oshishi ehtimoli mavjudligi hamda bunday xatarlarni kamaytirish mexanizmlari [nazarda tutilmaganligi](#);

loyihada xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlar bilan tuzilgan kelishuvlarda nazarda tutilgan raqobatni ta'minlashga oid talablar inobatga olinganligi hamda ularga rioya etilishi [ta'minlanganligi](#).

31. Loyihaning raqobat muhitiga ta'siri bo'yicha xavf darajasi baholash natijasiga ko'ra to'ldirilgan baholash cheklisti asosida yuqori, o'rtacha va past xavf toifalariga ajratiladi.

Xavf darajasi quyidagicha tasniflanadi:

yuqori xavf – 4 ta va undan ortiq raqobatni cheklashi mumkin bo'lgan omil aniqlangan taqdirda;

o'rtacha xavf – 2-3 ta raqobatni cheklashi mumkin bo'lgan omil aniqlangan taqdirda;

past xavf – 1 ta raqobatni cheklashi mumkin bo‘lgan omil aniqlangan taqdirda;

xavf aniqlanmagan – raqobatni cheklashi mumkin bo‘lgan omil mavjud bo‘lmagan taqdirda.

Belgilangan xavf toifasi baholash xulosasida aks ettiriladi va loyihaning raqobat muhitiga ta’siri bo‘yicha xavfi darajasini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

32. Baholash natijalari bo‘yicha ichki nazorat tuzilmasi va (yoki) mas’ul xodim tomonidan mazkur Yo‘riqnomaning 4-ilovasida nazarda tutilgan Yirik investitsiya loyihasining raqobat muhitiga ta’sirini baholash natijasi bo‘yicha xulosaning namunaviy shakliga muvofiq xulosa tayyorlanadi.

Xulosada quyidagilar ko‘rsatiladi:

raqobatni cheklovchi [holatlar](#) (mavjud bo‘lsa);

cheklovlarning qonuniyligi va maqbulligi bo‘yicha [baholash](#);

raqobatni ta’minlash bo‘yicha [aniq tavsiyalar](#) (lotlarga ajratish, ochiq tanlov o‘tkazish, eksklyuziv huquq berishni rad etish yoki muddatini qisqartirish, uchinchi shaxslar uchun kirishni ta’minlash, qo‘shimcha tenderlar va boshqalar);

monitoring va keyingi [nazorat shartlari](#);

loyihani amalga oshirish imkoniyati bo‘yicha yakuniy xulosa va boshqalar.

33. Loyihaning xavf darajasi yuqori bo‘lgan taqdirda loyihani amalga oshirish imkoniyati bo‘yicha salbiy xulosa beriladi.

Loyihaning xavf darajasi past yoki o‘rtacha bo‘lgan taqdirda raqobatni ta’minlash yuzasidan tavsiyalar asosida loyihani amalga oshirish imkoniyati bo‘yicha ijobiy xulosa beriladi. Bunda ichki nazorat tuzilmasi va (yoki) mas’ul xodim raqobatni cheklashi mumkin bo‘lgan omilning jiddiyligi hamda kelgusida tavsiyalar ijrosi ustidan nazorat qilish imkoniyatidan kelib chiqib, loyiha bo‘yicha salbiy xulosa berishi mumkin.

34. Xulosa baholash cheklisti bilan birgalikda va loyiha tashabbuskori, loyiha bo‘yicha qaror qabul qiluvchi vakolatli organ hamda zarur hollarda vakolatli organlarga yuboriladi.

35. Loyiha tashabbuskori xulosada keltirilgan tavsiyalarni loyihani ma’qullash, moliyalashtirishni tasdiqlash yoki shartnoma tuzishdan oldin bajarishi shart.

Tavsiyalarning ijrosi ichki nazorat tuzilmasi va (yoki) mas’ul xodim tomonidan nazorat qilinadi.

36. Agar baholash jarayonida raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzish alomatlari aniqlansa, tegishli materiallar O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga [yuboriladi](#).

5-bob. Ekspertiza va baholash natijalarini ko'rib chiqish tartibi

37. Korrupsiyaga qarshi ekspertiza hamda raqobat muhitiga ta'sirni baholash natijalarini kelishilgan holda ta'minlash maqsadida mazkur Yo'riqnomaning 3 va 4-boblari doirasida mas'ul xodimlar o'zaro ma'lumot almashadi, zaruratga ko'ra qo'shma muhokama o'tkazadi va umumiy tavsiyalar yoki qo'shma xulosa tayyorlashi mumkin.

38. Ekspertiza va baholash natijalari bo'yicha tayyorlangan xulosalar (qo'shma xulosa) (bundan buyon matnda ekspertiza va baholash xulosalari deb yuritiladi) va cheklistlar loyihani ma'qullash yoki moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilish vakolati berilgan davlat organlari va tashkilotlari (bundan buyon matnda vakolatli davlat organlari va tashkilotlari deb yuritiladi) tomonidan kollegial tartibda o'tkaziladigan yig'ilishlarda majburiy tartibda [ko'rib chiqiladi](#).

Ekspertiza va baholash xulosalari vakolatli davlat organlari va tashkilotlariga kelib tushgan kundan boshlab o'n ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

Ekspertiza va baholash xulosalari ko'rib chiqilmasdan turib loyihani ma'qullash, moliyalashtirishni tasdiqlash yoki kelishuv tuzishga [yo'l qo'yilmaydi](#).

39. Vakolatli davlat organlari va tashkilotlari ekspertiza va baholash xulosalarini loyiha bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan komissiyalar yoki boshqa kollegial organlar yig'ilishlarida ko'rib chiqilishi uchun kiritadi.

Loyiha bo'yicha qaror ekspertiza va baholash xulosalarida ko'rsatilgan yakuniy xulosa va tavsiyalarni hisobga olgan holda [qabul qilinadi](#).

Agar ekspertiza va baholash xulosalarida loyihani amalga oshirishdan oldin bajarilishi zarur bo'lgan shartlar yoki loyiha ijrosi davomida rioya etilishi lozim bo'lgan cheklovlar ko'rsatilgan bo'lsa, ular loyiha bo'yicha qabul qilinadigan [qarorga kiritiladi](#).

40. Ekspertiza yoki baholash natijalari bo'yicha salbiy xulosa berilgan bo'lsa, ekspertiza va baholash xulosalarida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilmasdan loyihani ma'qullashga [yo'l qo'yilmaydi](#).

Bunda ekspertiza va baholash xulosalarida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin loyiha qayta ekspertizadan va (yoki) qayta baholashdan o'tkaziladi.

41. Vakolatli davlat organlari va tashkilotlari qaror qabul qilishda ekspertiza va baholash xulosalarida keltirilgan tavsiyalar qanday inobatga olinganini qarorning asoslovchi qismida yoki yig'ilish bayonnomasida [aks ettiradi](#).

Agar ayrim tavsiyalar qabul qilinmagan bo'lsa, ularni rad etish sabablari yozma ravishda [asoslab beriladi](#).

Qonunchilik hujjatlaridan kelib chiqadigan majburiy talablarni rad etishga [yo'l qo'yilmaydi](#).

42. Ekspertiza va baholash xulosalari loyiha materiallariga [ilova qilinadi](#).

Loyihani amalga oshirish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar va boshqa hujjatlarda o'tkazilgan ekspertiza va baholash natijalari hamda ular asosida ko'rilgan choralar haqida ma'lumotlar [ko'rsatilishi lozim](#).

43. Ekspertiza va baholash xulosalari asosida loyiha tashabbuskori tomonidan vakolatli organlar bilan hamkorlikda korrupsiyaviy xavflar hamda raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni bartaraf etishga qaratilgan loyiha tashabbuskorining rahbari tomonidan tasdiqlanadigan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

44. Loyihani amalga oshirish jarayonida yoki qo'shimcha o'rganishlar natijasida yangi korrupsiya xavflari yoki raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar aniqlangan taqdirda vakolatli organlar:

ekspertiza yoki baholashni loyiha bosqichidan qat'i nazar navbatdan tashqari tartibda qayta o'tkazishni [talab qilishga](#);

aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha majburiy [ko'rsatmalar berishga](#);

jiddiy qonun buzilishi holatlari aniqlangan taqdirda loyihani amalga oshirishni yoki moliyalashtirishni to'xtatish, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartnomasini bekor qilish tashabbusi bilan [chiqishga haqli](#).

45. Loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi barcha subyektlar vakolatli organlar bilan hamkorlik qilishi, zarur ma'lumotlarni taqdim etishi, o'rganishlarga ko'maklashishi va berilgan ko'rsatmalarni [bajarishi lozim](#).

6-bob. Yakuniy qoida

46. Mazkur Yo'riqnoma talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Yirik
investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish
va ularning raqobat muhitiga ta'sirini baholash tartibi to'g'risidagi
yo'riqnomaga
1-ILOVA

**Yirik investitsiya loyihasida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash bo'yicha
CHECKLIST**

T/r	Mezonlar	Savollar	Ha	Yo'q	Tegishli emas	Izoh (asoslash)
1.	Tashkil etish va o'tkazish jarayonining oshkoraligi	Loyiha bo'yicha barcha ma'lumotlar to'liq e'lon qilinganmi?				
2.		Takliflarni taqdim etish uchun yetarli muddat mavjudmi?				
3.		Qarorlar bayonnoma yoki xulosalar bilan rasmiylashtirilganmi?				
4.		Murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi belgilanganmi?				
5.	Me'yorlarning aniqligi va xolisligi	Tanlov mezonlari va baholash ko'rsatkichlari oldindan belgilanganmi?				
6.		G'olibni tanlash va qaror qabul qilish bosqichlari tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilganmi?				
7.		G'olibni tanlash natijalari har bir mezon bo'yicha asoslanganmi?				
8.		Baholash mezonlari barcha ishtirokchilarga bir xil qo'llanganmi?				
9.	Manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi	Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasi taqdim etilganmi?				

10.		Qaror qabul qiluvchilarda manfaatdorlik mavjud emasmi				
11.		Manfaatlar to'qnashuvi holatida manfaatdor shaxslar qaror qabul qilishdan chetlatilganmi?				
12.		Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va bartaraf etish tartibiga rioya qilinganmi?				
13.	Diskretsiyon vakolatlar mavjud emasligi	Qaror qabul qilish shartlari, asoslari va tartibi aniq belgilanganmi?				
14.		Noaniq yoki cheklanmagan vakolatlar mavjud emasmi?				
15.		Vakolat doirasiga kirmaydigan vazifalar yuklash holatlari mavjud emasmi?				
16.	Cheklovlar va to'siqlar mavjud emasligi	Talablar loyiha maqsadidan kelib chiqqan holda asoslanganmi?				
17.		Litsenziyalash, ruxsatnoma berish va xabardor qilish tartiblari qonunchilikka muvofiq belgilanganmi?				
18.		Noaniq yoki asossiz talablar mavjud emasmi?				
19.		Loyiha maqsadiga aloqador bo'lmagan tashkiliy, moliyaviy yoki ma'muriy talablar mavjud emasmi?				
20.		Muayyan ishtirokchiga afzallik beruvchi				

		talablar mavjud emasmi?				
21.	Nazorat va hisobot	Tashqi nazorat mexanizmlari nazarda tutilganmi?				
22.		Monitoring tartibi belgilanganmi?				
23.		Ommaviy hisobot taqdim etish tartibi belgilanganmi?				
24.	Javobgarlik choralari	Korrupsiya holatlari uchun javobgarlik choralari mavjudmi?				
25.		Korrupsiyaga qarshi qoidalarga rioya qilish majburiyati belgilanganmi?				
26.		Komplayens dasturlari yoki odob-axloq siyosati bo'yicha talablar mavjudmi?				
27.	Boshqa omillar	Huquqiy masalalarda bo'shliqlar mavjud emasmi?				
28.		Huquq va majburiyatlar aniq belgilanganmi?				
29.		Qoidalarni turlicha talqin qilish imkoniyati mavjud emasmi?				
30.		Tartib-taomillar to'liq belgilanganmi?				

Yirik

investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish
va ularning raqobat muhitiga ta'sirini baholash tartibi to'g'risidagi
yo'riqnomaga
2-ILOVA

NAMUNA

Yirik investitsiya loyihasi bo'yicha korrupsiyaga qarshi ekspertiza xulosasining namunaviy shakli

1. Umumiy ma'lumotlar

Loyiha nomi:
Loyiha tashabbuskori (tashkilot):
Qisqacha tavsifi: (maqsadi, ko'lami, investitsiyalar hajmi, amalga oshirish muddati)
Loyiha bo'yicha mas'ul shaxslar: (F.I.O., lavozimi)
Ekspertiza o'tkazilgan sana:
Ekspert guruhi tarkibi: (F.I.O., lavozimi, tashkiloti)
Ekspertiza o'tkazish asosi:
(*masalan, normativ-huquqiy hujjat yoki buyruqqa havola*)

2. Ekspertiza tartibi haqida ma'lumotlar

Taqdim etilgan hujjatlar:
(tahlil qilingan barcha hujjatlar ro'yxati, shu jumladan texnik-iqtisodiy asos, loyiha kelishuvi, tender hujjatlari va boshqalar)
Ekspertiza metodologiyasi
(*masalan, ekspertiza O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining uslubiy tavsiyalari, yirik investitsiya loyihasida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash bo'yicha cheklist, hujjatlarni tahlil qilish va tashabbuskor vakillari bilan suhbatlar va boshqalar orqali amalga oshirildi*)

3. Xavf toifasi

Yakuniy xavf darajasi: Past O'rtacha Yuqori
Qisqacha asoslash:
(*masalan, loyihada 15 ta korrupsiyaviy omil aniqlanganligi sababli ushbu loyihaning xavf darajasi yuqori*)

4. Aniqlangan korrupsiyaviy omillar

№	Omil (xavf) tavsifi	Qayerda aniqlangan	Omil (xavf) sababi
4.1	Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasi taqdim etilmagan	Loyihaga aloqador hujjatlar	Manfaatlar to'qnashuvi xavfi
4.2	Loyiha bo'yicha barcha zarur ma'lumotlar to'liq e'lon qilinmagan	Tender hujjatlari	Ochiqlik va sog'lom raqobatning ta'minlanmasligi xavfi
4.3	Monitoring tartibi belgilanmagan	Loyiha kelishuvi	Nazorat tizimi yo'q, vakolatni suiiste'mol qilish xavfi

5. Qonun buzilishi holatlari

Mazkur maydon qonunchilik hujjatlari yoki majburiy huquqiy normalar buzilgan hollarda to'ldiriladi.

(masalan, baholash xizmatlari to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bo'yicha asossiz xarid qilingan bo'lib, ushbu holat O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining [71-moddasiga](#) zid)

6. Korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar

№	Muammo	Tavsiya etilgan chora	Mas'ul organ (tuzilma, shaxs)	Ijro muddati
6.1	Tanlov o'tkazilmagan	Davlat xaridlari portalida ochiq tender e'lon qilish	Investitsiya boshqarmasi	2030-yil 1-yanvar qadar
6.2	Xarid komissiyasi a'zorida manfaatlar to'qnashuvi mavjud	Manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralari ko'rish	Loyiha ishchi guruhi rahbari	Darhol
6.3	Shartnomada korrupsiyaga qarshi band yo'q	Kelishuv loyihasiga korrupsiyaga qarshi band kiritish	Yuridik bo'lim	Imzolangunga qadar

7. Tavsiyalar ijrosi ustidan nazorati

(Masalan, tavsiyalarning bajarilishi ustidan nazorat korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi zimmasiga yuklanadi. Tavsiyalarni bajarish holati bo'yicha ma'lumotlar tashkilot rahbariga hamda zarurat tug'ilganda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuboriladi)

8. Loyihaning maqbulligi bo'yicha xulosa

Ekspert guruhi rahbari:

F.I.O. _____ Imzo _____ Sana _____

Ekspert guruhi a'zolari:

1. F.I.O. _____ Imzo _____ Sana _____

2. F.I.O. _____ Imzo _____ Sana _____

3. ...

Tasdiqlandi:

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi rahbari:

F.I.O. _____ Imzo _____ Sana _____

Yirik investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va ularning raqobat muhitiga ta'sirini baholash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga

3-ILOVA

**Yirik investitsiya loyihasining raqobat muhitiga ta'sirini baholash
bo'yicha
CHECKLIST**

T/r	Mezonlar	Savollar	Ha	Yo'q	Tegishli emas	Izoh (asoslash)
1.	Bozor va ishtirokchilar	Loyihaning tegishli bozorlarga ta'siri aniqlanganmi?				
2.		Ishtirokchi xo'jalik yurituvchi subyektlar soni yoki doirasi cheklanmaganmi?				
3.		Ta'minotchilar (pudratchilar) soniga ta'siri baholanganmi?				
4.		Ta'minotchilar soni qisqargan taqdirda ushbu qisqarish asoslanganmi?				
5.	Kirish shartlari va maxsus huquqlar	Ishtirokchilarga eksklyuziv huquqlar yoki imtiyozlar berish nazarda tutilmaganmi?				
6.		Eksklyuziv huquqlar yoki imtiyozlar asoslanganmi?				
7.		Eksklyuziv huquqlarning amal qilish muddati va qayta ko'rib chiqish tartibi belgilanganmi?				
8.	Davlatning aralashuvi	Davlat qo'llab-quvvatlashi o'zaro raqobatlashishga				

		qiziqishni pasaytirmaydimi?				
9.		Davlat qo'llab-quvvatlash choralari ochiq va shaffof belgilanganmi?				
10.		Davlat qo'llab-quvvatlashi boshqa ishtirokchilar uchun teng shart-sharoitlarni buzmaydimi?				
11.	Bog'liq bozorlarga ta'sir	Bog'liq bozorlarda raqobatni cheklash xavfi mavjud emasmi?				
12.		Bog'liq bozorlarda ustun mavqe vujudga kelish xavfi mavjud emasmi?				
13.		Raqobatni ta'minlash choralari nazarda tutilganmi?				
14.	Raqobat qonunchiligiga muvofiqlik	Raqobat qonunchiligiga zid keluvchi shartlar nazarda tutilmaganmi?				
15.		Raqobatni cheklashga olib keluvchi shartlar mavjudmi, kelishilganmi?				
16.		Raqobatchilar faoliyatini cheklovchi shartlar nazarda tutilmaganmi?				

Yirik
investitsiya loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish
va ularning raqobat muhitiga ta'sirini baholash tartibi to'g'ri maydagi
yo'riqnomaga
4-ILOVA

NAMUNA

Yirik investitsiya loyihasining raqobat muhitiga ta'sirini baholash natijasi bo'yicha xulosaning namunaviy shakli

1. Umumiy ma'lumotlar

Loyiha nomi:

Loyiha tashabbuskori (tashkilot):

Qisqacha tavsif: (maqsadlari, amalga oshirish sohasi, investitsiya hajmi, muddati)

Loyiha bo'yicha mas'ul shaxslar: (F.I.O., lavozimi)

Baholash o'tkazilgan sana:

Ekspert guruhi tarkibi: (F.I.O., lavozimi, tashkiloti)

Baholash o'tkazish asosi:

(masalan, normativ-huquqiy hujjat yoki buyruqqa havola)

2. Baholash tartibi haqida ma'lumotlar

Taqdim etilgan materiallar:

(tahlil qilingan barcha hujjatlar ro'yxati: tender hujjatlari,
loyiha kelishuvi, smeta, texnik-iqtisodiy asos va boshqalar)

Qo'llanilgan metodologiya:

*(masalan, investitsiya loyihalarini baholash bo'yicha
uslubiy tavsiyalar, Yirik investitsiya loyihasining raqobat
muhitiga ta'sirini baholash bo'yicha cheklist, bozor tuzilmasi
va sohaviy ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqalar orqali
o'tkazildi)*

3. Xavf toifasi

Yakuniy xavf darajasi: Past O'rtacha Yuqori

Qisqacha asoslash:

*(masalan, loyihada 4 ta raqobatni cheklashi mumkin bo'lgan omil aniqlanganligi sababli
ushbu loyihaning xavf darajasi yuqori)*

4. Raqobat uchun xatarlar

№	Omil (xavf) tavsifi	Qayerda aniqlangan	Omil (xavf) sababi
4.1	Shartlarni qayta ko'rib chiqish imkoniyatisiz 25 yilga eksklyuziv huquqlar taqdim etilgan	Loyiha kelishuvi	Yangi ishtirokchilar uchun bozorga kirish cheklangan, raqobatni cheklash xavfi
4.2	Davlat kafolatlari faqat bir ishtirokchiga beriladi	“Qo'llab-quvvatlash choralari” bo'limi	Raqobat muhiti buziladi, bozorda teng bo'lmagan sharoit yuzaga keladi
4.3	Qonunchilikda nazarda tutilmagan ayni bir sertifikatga ega ishlab chiqaruvchilar qatnashishi mumkin	Tender hujjatlari	Bozorda sun'iy ravishda raqobat cheklanadi

5. Raqobatni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar

№	Muammo	Tavsiya etilgan chora	Mas'ul organ (tuzilma, shaxs)	Ijro muddati
5.1	Eksklyuziv huquqlarni qayta ko'rib chiqish mexanizmi yo'q	Kelishuvni uzaytirishda majburiy tender shartini kiritish	Yuridik bo'lim	Loyiha tasdiqlanishiga qadar
5.2	Davlat kafolatlari asossiz ravishda faqat bir ishtirokchiga berilgan	Boshqa ehtimoliy hamkorlar uchun simmetrik shartlarni ko'rib chiqish	Loyiha buyurtmachisi	30 kun ichida
5.3	Raqobatni cheklovchi talablar mavjud	Tender hujjatlarini qayta ko'rib chiqish, kengroq ishtirokni ta'minlash	Davlat xaridlari bo'limi	Tanlov jarayoni boshlanguni qadar

6. Tavsiyalar ijrosi ustidan nazorat

(masalan, tavsiyalarning bajarilishi ustidan nazorat loyiha tashabbuskorining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi va (yoki) mas'ul xodim tomonidan amalga oshiriladi)

7. Amalga oshirish imkoniyati bo'yicha xulosa

Ijobiy xulosa (shartlar bilan):

Loyiha bo'yicha tavsiya etilgan choralar amalga oshirilgan taqdirda raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Salbiy xulosa:

Loyiha raqobat muhitini buzish xavfini yuzaga keltiradi, mavjud cheklovlar bartaraf etilganidan so'ng amalga oshirilishi mumkin.

8. Imzolar

Ekspert guruhi rahbari:

F.I.O. _____ Imzo _____ Sana _____

Ekspert guruhi a'zolari:

1. F.I.O. _____ Imzo _____ Sana _____

2. F.I.O. _____ Imzo _____ Sana _____

3. ...

Tasdiqlandi:

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi rahbari va (yoki) monopoliyaga qarshi komplayens bo'yicha mas'ul xodim:

F.I.O. _____ Imzo _____ Sana _____